

MAKTABGACHA TA'LIMDA MILLIY QADRIYATLAR VA GLOBAL KOMPETENSIYALAR INTEGRATSIYASI

Mirsaatova Shaxlo Rustamovna

Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 201-
sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim tizimida milliy qadriyatlar va global kompetensiyalar uyg'unligi, ularning bolalar rivojlanishiga ta'siri hamda integratsiyani amalga oshirishdagi samarali pedagogik modellar tahlil qilinadi. Milliylikni yo'qotmagan holda zamonaviy dunyoda raqobatbardosh shaxsni tarbiyalashning imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Global kompetensiya, integratsiya, STEM, projekt usullari.

Аннотация: В статье анализируется сочетание национальных ценностей и глобальных компетенций в системе дошкольного образования, их влияние на развитие детей, а также эффективные педагогические модели реализации интеграции. Раскрываются возможности воспитания конкурентоспособной личности в современном мире без потери национальной принадлежности.

Ключевые слова: глобальная компетентность, интеграция, STEM, проектные методы.

Abstract: This article analyzes the combination of national values and global competences in the preschool education system, their impact on children's development, and effective pedagogical models for implementation of integration. The possibilities of raising a competitive person in the modern world without losing his nationality are highlighted.

Keywords: Global competence, integration, STEM, project methods.

Globalashuv jarayoni jadal kechayotgan hozirgi davrda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida, ayniqsa maktabgacha ta'limda, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va shu bilan birga bolalarda zamonaviy global ko'nikmalarni shakllantirish masalasi o'ta dolzarb hisoblanadi. Maktabgacha yosh bola – shaxsiyat shakllanishining eng nozik bosqichi bo'lgani uchun ushbu muvozanatni to'g'ri yo'lga qo'yish katta pedagogik ahamiyatga ega.

1. Milliy qadriyatlarning maktabgacha ta'limdagi o'rni

Milliy qadriyatlar – xalqning asrlar davomida shakllangan urf-odatlar, an'analari, madaniy merosi, ma'naviy me'yorlari va hayotiy tajribalaridir. Ular bolaning:

milliy o'zligini anglashi,
vatanparvarlik tuyg'usi,
kattalarga hurmat,
oilaviy qadriyatlarga sodiqlik,
estetik didi,
ma'naviy immuniteti
kabi muhim sifatlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq ertaklari, milliy o'yinlar, amaliy san'at elementlari, marosimlar va xalq kuy-qo'shiqlaridan foydalanish bolalarni milliy ruhda tarbiyalashning eng samarali yo'llaridan sanaladi.

2. Global kompetensiyalar – XXI asr bolasiga qo'yiladigan talablar.

Global kompetençiyalar bolaning zamonaviy dunyoda erkin muloqot qila olishi, axborotni tanqidiy tahlil qilishi, madaniyatlararo aloqalarga moslashishi, yangi vaziyatlarda innovatsion echim topishi kabi sifatlarni qamrab oladi. Ularning asosiy turlari:

- Tanqidiy va kreativ fikrlash
- Muloqot va hamkorlik ko'nikmalari
- Raqamli savodxonlik
- Ekologik madaniyat va barqaror rivojlanish ongi
- Madaniyatlararo tolerantlik

Bu kompetençiyalar bolani global dunyo sharoitiga mos, raqobatbardosh shaxs sifatida voyaga etkazishda muhim rol o'ynaydi.

3. Milliy qadriyatlar va global kompetençiyalar integratsiyasining pedagogik asoslari.

Integratsiya — bu ikki yo'nalishni aralashtirish emas, balki bir-birini boyituvchi tarzda uyg'unlashtirishdir. Quyida asosiy integratsion yo'nalishlar keltiriladi:

Milliy qahramonlar obrazi orqali global muammolar: tabiatni asrash, hamjihatlik, ilmiy tafakkurni rivojlantirish.

- Rivojlantiruvchi muhitda integratsiya
- Milliy ruhni aks ettiruvchi interer elementlari;
- Tabiiy materiallar asosida ekologiyaga oid markazlar;
- Madaniyatlararo hurmatni shakllantiruvchi “dunyo xalqlari” burchagi.

Maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar va global kompetensiyalar integratsiyasi — bu bolani har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik yondashuvdir. Milliylik va globallik uyg'un bo'lganda, bola o'z ildizlarini anglagan, bir vaqtning o'zida zamonaviy tendensiyalarga moslasha oladigan barkamol shaxs sifatida kamol topadi. Bu jarayon kelajakda bilimdon, madaniyatli, mas'uliyatli va xalqaro muhitda raqobatbardosh avlodni tarbiyalashning mustahkam poydevoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017–2023 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga oid farmonlari va qarorlari.
3. “Ilk qadam” Davlat o'quv dasturi. Toshkent: MTV, 2020.
4. Xaliqova R. “Maktabgacha ta'lim metodikasi”. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
5. To'raqulov, Q. “Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi psixologiyasi”. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
6. Valiyeva F.R., Sharipova G.N. Innovative technologies in improving the management of preschool educational organizations//International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I5.94 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 05 2022
7. Abdullayeva N.Sh. Leader competency and its specific characteristics in managing the school education system// American Journal Of Social Sciences And Humanity Research eISSN:2771-2141Pages:152-158|Crossref DOI:https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume04Issue02-23 Published Date: 2024-02-29http://theusajournals.com/index.php/ajsshr/article/view/2548
8. Abdullayeva N.Sh. Improving the preschool education system on the basis of cluster technologies// Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation, B. 36872-36886 2021 y